

**YURIDIK JARAYONLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH**

USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN LEGAL PROCESSES

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
ЮРИДИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ**

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li

Farg'onan davlat universiteti Jurisprudensiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
muhammadrajabh18@gmail.com +998916537883

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuridik jarayonlarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari batafsil yoritilgan. Maqolada yuridik tizimda raqamli transformatsiya jarayonlari, elektron xizmatlar, sud va huquq-tartibot organlarida axborot texnologiyalarining joriy etilishi, elektron ish yuritish va elektron hujjat aylanishi tizimlari kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, elektron ish yuritishning afzallikkleri va uning huquqiy kafolatlari, mayjud muammolar va ularning yechimlariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqot yuridik sohada raqamli islohotlarni amalga oshirish uchun nazariy va amaliy asos yaratishga xizmat qiladi hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida samarali yechimlar taklif etadi.

Kalit so'zlar: yuridik jarayon, axborot texnologiyalari, elektron xizmatlar, raqamli sud, elektron hujjat, raqamli islohot, elektron ish yuritish.

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li

1st-year student of the Jurisprudence program, Fergana State University
muhammadrajabh18@gmail.com +998916537883

Annotation: This article thoroughly examines the theoretical and practical aspects of using information technologies in legal processes. It covers digital transformation of the legal system, implementation of electronic services, use of IT in courts and law enforcement, electronic document management, and electronic proceedings. The article highlights advantages, legal guarantees, and challenges of electronic judiciary, proposing effective solutions based on international experience. This work provides a theoretical and practical foundation for digital reforms in the legal field.

Keywords: legal process, information technologies, electronic services, digital court, electronic document, digital reforms, electronic proceedings.

Хабибуллаев Мухаммадраджаб Обиджон угли

Студент 1-го курса направления «Юриспруденция» Ферганский государственный университет
muhammadrajabh18@gmail.com +998916537883

Аннотация: В статье подробно рассмотрены теоретические и практические аспекты использования информационных технологий в юридических процессах. Описаны цифровая трансформация правовой системы, внедрение электронных услуг, применение ИТ в судах и правоохранительных органах, электронный документооборот и электронное делопроизводство. Особое внимание уделено преимуществам, правовым гарантиям и существующим проблемам электронного судопроизводства, а также предложены эффективные решения на основе анализа зарубежного опыта. Работа служит теоретической и практической основой для цифровых реформ в юриспруденции.

Ключевые слова: юридический процесс, информационные технологии, реформы, электронное делопроизводство.

KIRISH

Yigirmanchi asr oxiri va yigirma birinchi asrning birinchi choragida insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida axborot texnologiyalari jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Bu o'zgarishlardan yuridik tizim ham mustasno bo'lib qolgani yo'q. Bugungi kunga kelib, yuridik jarayonlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish zamon talabi bo'lib, huquqiy tizimni raqamlashtirish orqali adolatl, shaffof va tezkor yondashuvga erishish maqsad qilinmoqda. Mazkur yo'naliш huquqiy davlat tamoyillarining amalda ro'yobga chiqishiga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalarining yuridik tizimga kirib kelishi bu sohadagi jarayonlarning soddalashtirilishi, inson omiliga bog'liq xatoliklarning kamaytirilishi, raqobatbardosh yuridik xizmatlarning shakllanishi hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga keng yo'l ochmoqda. Hozirgi zamonda odatiy qog'oz shaklidagi ish yurituvlar asta-sekin o'mini elektron hujjatlar aylanishi tizimiga bo'shatayotgani kuzatilmoxda. Bu esa o'z navbatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, yuridik firmalar hamda notarial idoralarning ish faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Yuridik tizim va axborot texnologiyalarining integratsiyasi ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Birinchisi – tashkiliy integratsiya bo'lib, bunda AT yuridik idoralarning ish yurituv jarayonlariga joriy qilinadi. Ikkinchisi esa funktsional integratsiyadir, ya'ni fuqarolar bilan davlat yuridik tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro aloqalar raqamli vositalar orqali amalgalashirildi. Masalan, onlayn murojaat yuborish, elektron tartibda yuridik maslahat olish, shikoyat va arizalarni elektron shaklda topshirish, sud majlislarida videokonferensaloqa orqali ishtiroy etish kabilalar bunga yaqqol misoldir.

Yuridik tizimda axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi asosiy ustunliklarni taqdim etadi. Avvalo, jarayonlarning tezkorligi ta'minlanadi. Raqamli hujjatlar almashinushi, elektron imzo bilan tasdiqlash kabi imkoniyatlar orqali turli sud, tergov va yuridik maslahat ishlarining kechikmasdan hal etilishi kafolatlanadi. **Elektron raqamli imzo** - bu elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikasiya qilish imkonini beradigan

imzodir⁴⁰. Ikkinchidan, shaffoflik va hisobdorlik darajasi oshadi. Har bir yurituv bosqichi elektron tizimda qayd etilgani sababli noqonuniy aralashuv, korrupsiyaviy xatti-harakatlar va boshqa noqonuniy harakatlarning oldi olinadi. Uchinchidan, yuridik axborotga erkin kirish imkoniyati paydo bo'ladi. Onlayn qonunchilik bazalari, sud qarorlari to'plamlari va yuridik maqolalar ommiga ochiq bo'lganligi sababli fuqarolar o'z huquqlarini yaxshiroq anglay boshlaydilar. To'rtinchidan esa, yuridik xizmatlar aholining barcha qatlamlari uchun ommaboplashadi. Endilikda huquqiy maslahat olish uchun uzoq kutishga, hujjat topshirish uchun uzoq navbatlarda turishga hojat qolmaydi – bularning barchasi raqamli shaklda amalga oshiriladi.⁴¹

Yuridik sohada axborot texnologiyalarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun kuchli elektron infratuzilma zarur. Bunday infratuzilmaning asosiy elementlari sifatida elektron hujjat aylanish tizimlari, raqamli imzolar, autentifikatsiya vositalari, yuridik xizmatlarni ko'rsatadigan onlayn platformalar, yagona elektron sud portallari va huquqiy ma'lumotlar bazalarini tilga olish mumkin. Masalan, O'zbekistonda E-SUD.UZ, Lex.uz, Pravo.gov.uz kabi platformalar faoliyat yuritmoqda. Ular fuqarolar va yuridik xodimlarga qonunchilik matnlariga, sud qarorlariga, normativ-huquqiy hujjatlarga tezkor va aniq kirish imkonini yaratmoqda.

Yuridik texnologiyalarning dunyo tajribasiga nazar tashlansa, ayrim mamlakatlarda bu boradagi ilg'or yondashuvlar alohida e'tiborga loyiqidir. Masalan, Estoniya raqamli davlat modelini muvaffaqiyatli joriy etgan davlatlardan biri bo'lib, u yerda deyarli barcha yuridik xizmatlar, shu jumladan sud ishlarining yuritilishi ham elektron shaklda amalga oshiriladi. AQShda esa PACER (Public Access to Court Electronic Records) platformasi orqali fuqarolar sud ishlariga oid ma'lumotlarni mustaqil tarzda olishi mumkin. Janubiy Koreyada esa sun'iy intellekt yordamida sud qarorlarining dastlabki tahlili amalga oshirilmoqda. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham ibrat bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, yuridik texnologiyalarni rivojlantirishda normativ-huquqiy baza muhim o'rinn tutadi. O'zbekistonda bu borada "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi asosiy yo'naliishlardan biri sifatida yuridik xizmatlarning raqamlashtirilishini ko'zda tutmoqda.⁴² Shuningdek, Elektron huquqiy xizmatlar to'g'risida qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi fuqarolarga ko'rsatilayotgan yuridik xizmatlarni raqamli formatga o'tkazishdir. Adliya vazirligi va boshqa vakolatli organlar tomonidan yaratilgan yagona portallar orqali shikoyatlar yuborish, davlat xizmatlaridan foydalanish, yuridik maslahatlar olish imkoniyati paydo bo'ldi. Ammo bu boradagi ijobjiy holatlar bilan birga, ayrim xavf va tahdidlar ham mavjud. Ulardan eng muhimi – ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash masalasidir. Yuridik sohadagi ko'plab hujjatlar sir tutilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Agar axborot xavfsizligi yetarli darajada ta'minlanmasa, bu fuqarolarning huquq va manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, kiberxavfsizlik tahdidlari mavjud bo'lib, ular elektron hujjat tizimlariga hujumlar orqali hujjatlarni o'zgartirish, o'g'irlash yoki yo'q qilish xavfini yuzaga keltiradi. Yana bir muammo esa raqamli tenglik masalasidir – ya'ni barcha fuqarolar birdek raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Internet infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan

⁴⁰ "Elektron raqamli imzo to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni

⁴¹ "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

⁴² O'zbekiston respublikasi "Taraqqiyot strategiyasi"

hududlarda, axborot texnologiyalariga ega bo'lmagan aholida yuridik xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanishi ehtimoli mavjud. Shunday qilib, yuridik jarayonlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda zamonaviy huquqiy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bu nafaqat sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki advokatlar, notariuslar, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda fuqarolar uchun ham ulkan yengilliklarni yaratmoqda.⁴³ Lekin raqamlashtirish jarayoni faqat texnik infratuzilmani yaratish bilangina cheklanmasligi, balki u qonunchilik, axloqiy mezonlar va axborot xavfsizligi talablariga to'liq javob berishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi yuridik tizimining zamonaviy talablar asosida rivojlanib borayotganligi, davlat rahbari tomonidan bu boradagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilayotganligi kelajakda elektron yuridik xizmatlar sohasida yangi bosqichga chiqishga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik xizmatlar samaradorligini oshirish va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish – eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi. Zamonaviy yuridik tizimda axborot texnologiyalari tobora kengroq qo'llanilayotgan bir paytda, ularning aniq va izchil yo'nalishlarda rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalarining yuridik amaliyotdagi roli faqatgina elektron hujjatlar bilan ishlashdan iborat bo'lmay, balki butun tizimi tubdan o'zgartirishga qaratilgan keng qamrovli mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Bu esa yuridik faoliyatning takomillashishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, yuridik amaliyotda qo'llanilayotgan axborot texnologiyalarini bir nechta asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin: elektron sud tizimi, yuridik xizmatlar portallari, huquqiy axborot tizimlari, sun'iy intellekt va algoritmik yondashuvlar, raqamli notarial faoliyat, kriptografik texnologiyalar va masofaviy huquqiy xizmatlar.

Elektron sud tizimi zamonaviy yuridik amaliyotning eng asosiy poydevorlaridan biridir. Bu tizim fuqarolarga sudga murojaat qilish, hujjatlarni topshirish, da'vo arizasini rasmiylashtirish, sud jarayonlarini kuzatib borish, sud qarorlarini olish imkonini elektron shaklda beradi.⁴⁴ Masalan, O'zbekistonda joriy etilgan "E-SUD" tizimi orqali minglab fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini himoya qilishda zamonaviy vositalardan foydalanishmoqda. Bu tizim sud idoralarining ish yukini kamaytirib, yurituv jarayonlarini soddallashtirmoqda. Elektron sud tizimi orqali tomonlar o'z murojaatlarini istalgan joydan yuborishlari mumkin, bu esa transport va vaqt xarajatlarini kamaytiradi. Bundan tashqari, sud qarorlarini arxivlash, sud majlislarining yozuvlarini saqlash kabi texnik imkoniyatlar adolatning ta'minlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalish bu – yuridik xizmatlar portallaridir. Bunday portallar orqali fuqarolar yuridik maslahatlar olishlari, shikoyat va murojaatlarini yuborishlari, davlat xizmatlari ro'yxatidan foydalanishlari mumkin. "My.gov.uz" yoki "Hujjat.uz" singari

⁴³ Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston strategiyasi", T.: "O'zbekiston", 2022.

⁴⁴ "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

platformalar nafaqat ariza topshirish, balki xizmatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish, huquqiy hujjatlarni yuklab olish kabi qulayliklarni taqdim etadi. Ayniqsa, shaxsiy kabinetlar orqali foydalanuvchilar o'zlarining huquqiy holati, murojaatlarining ko'rib chiqilishi jarayoni va natijasi bilan tanishish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Bu esa davlat idoralari faoliyatining ochiqligini va hisobdorligini kuchaytiradi.

Huquqiy axborot tizimlari yuridik amaliyotning tayanch infratuzilmasidir. Bu tizimlar qonunchilik hujjatlari, sud qarorlari, normativ hujjatlar to'plamlari, sharhlar, ilmiy maqolalar va yuridik yangiliklarni o'z ichiga oladi. Masalan, Lex.uz portalı O'zbekiston qonunchiligining rasmiy manbai sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu kabi tizimlar nafaqat yuristlar, balki oddiy fuqarolar uchun ham qonunlarga kirish imkonini taqdim etib, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishda muhim vositaga aylanmoqda. Shuningdek, interaktiv huquqiy yordam xizmati orqali fuqarolar o'zlariga tegishli qonunlar bo'yicha savollariga tezkor javob olishlari mumkin.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining yuridik amaliyotga kirib kelishi ham alohida e'tiborga loyiq. Bunday texnologiyalar yuridik hujjatlarni tahlil qilish, sud qarorlarini prognozlash, shartnomalarni avtomatik tuzish, huquqiy xatolarni aniqlash kabi funksiyalarni bajarishga qodir.⁴⁵ Misol uchun, AQShda ishlab chiqilgan Ross Intelligence dasturi yuridik tadqiqotlarni tez va aniq bajarib beradi. IBM Watson esa yuridik maslahatlar berish imkoniyatiga ega sun'iy intellekt tizimidir. Bu kabi texnologiyalar nafaqat yuristlar ishini yengillashtiradi, balki inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi, vaqtin tejaydi va xizmatlar sifatini oshiradi.

Raqamli notarial faoliyat ham hozirgi yuridik texnologiyalar orasida muhim o'rinn tutadi. Notariuslar tomonidan bajariladigan harakatlarning elektron shaklga o'tkazilishi hujjatlarning haqiqiyligini, ishonchlilagini va xavfsizligini ta'minlaydi. Masalan, elektron raqamli imzo yordamida tasdiqlangan vasiyatnama, ishonchnoma yoki boshqa notarial hujjatlarni masofadan turib rasmiylashtirish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu esa nafaqat notariuslar uchun, balki aholi uchun ham qulayliklar yaratmoqda. O'zbekiston notarial tizimida "Yagona elektron notariat" tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda.

Axborot texnologiyalaridan yuridik amaliyotda foydalanishda kriptografik texnologiyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kriptografiya – axborotni kodlash orqali uni maxfiy saqlash, faqat mo'ljallangan foydalanuvchiga yetkazish imkonini beradi.⁴⁶ Elektron hujjatlarni tasdiqlashda raqamli imzo, elektron identifikatsiya, xavfsiz aloqa kanallari orqali yuborish va qabul qilish imkoniyatlari bu texnologiyaning qo'llanish doirasiga kiradi. Ayniqsa, sud jarayonlarida, huquqiy shartnomalarni yuborish va saqlashda, advokatlik sirlarini muhofaza qilishda ushbu texnologiyalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yana bir muhim yo'nalish – masofaviy yuridik xizmatlar (legal remote services) bo'lib, ular pandemiya davrida alohida ahamiyat kasb etdi. Endilikda fuqarolar advokat bilan masofadan bog'lanib maslahat olishlari, onlayn sud majlislarida ishtiroy etishlari, yuridik hujjatlarni elektron shaklda yuborishlari mumkin. Bu yondashuv yuridik xizmatlarga bo'lgan talabni qamrab olishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

⁴⁵ S.K.Ganiyev, A.A. Ganiyev, Z.T. Xudoyqulov Kiberxavfsizlik asoslari, O'quv qo'llanma. Toshkent-2020

⁴⁶ Shermatova Xilola Mirzayevna. Ta'limga axborot texnologiyalari. Darslik 2-qism, Farg'ona-2023

O'zbekiston hududlaridagi olis aholi punktlarida yashovchi fuqarolar uchun ham yuridik xizmatlardan teng foydalanish imkoniyati ta'minlanmoqda.

Shuningdek, yuridik firmalar va advokatlik byurolari tomonidan o'z faoliyatida maxsus yuridik dasturlardan foydalanish holatlari tobora ortib bormoqda. Masalan, yuridik hujjatlar bazasini yuritish, mijozlar bilan ishslash, ish yuritish muddatlarini nazorat qilish, ishni avtomatlashtirish kabi dasturlar samaradorlikni sezilarli darajada oshirmoqda. Bu orqali yuridik tashkilotlar o'z mijozlariga tez, ishonchli va raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatishga erishmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuridik amaliyotda axborot texnologiyalarining asosiy yo'nalishlari ko'p qirrali va o'zaro bog'langan bo'lib, ular yuridik xizmatlar tizimini kompleks tarzda takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Elektron sud, yuridik portallar, huquqiy axborot tizimlari, sun'iy intellekt, raqamli notariat va kriptografik texnologiyalar — bularning barchasi fuqarolarning huquqlarini yanada samarali himoya qilishga, adolatni ta'minlashga va yuridik tizimga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishlar nafaqat texnologik yutuq, balki huquqiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Ularning yanada rivojlanishi uchun davlat siyosati, yuridik hamjamiyat va fuqarolik jamiyatining uzviy hamkorligi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Elektron raqamli imzo to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni
2. "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
3. O'zbekiston respublikasi "Taraqqiyot strategiyasi"
4. Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston strategiyasi", T.: "O'zbekiston", 2022.
5. "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
6. S.K.Ganiyev, A.A. Ganiyev, Z.T. Xudoyqulov Kiberxavfsizlik asoslari, O'quv qo'llanma. Toshkent-2020
7. Shermatova Xilola Mirzayevna. Ta'limda axborot texnologiyalari. Darslik 2-qism, Farg'ona-2023